

**QOYATOSH SURATLARI QADIM INSONIYAT
TAFAKKURINI ANGLOVCHI MANBA (SARMISHSOY MISOLIDA)**

Shomurodova Nozima

Buxoro Davlat Universiteti magistranti

Niyazova Maxsuma

Buxoro Davlat Universiteti t.f.n.dotsent

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qoyatosh suratlar chorvador aholi ijod mahsuli ekanligi tahlil etilgan. Qadimgi davr rassomlarining xo‘jalik hayoti, ideologiyasi va madaniy dunyosi haqida ma’lumotlar beradi. Qoyatosh suratlarda o‘tmishnnng har xil davrlarida yashagan ajodolarimizning kundalik hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalar namoyish etilgan.

Kalit so‘zlar: Zirabuloq, Qo‘tirbuloq, Kavobi, Sarmishsoy, Konimex, Quyi Zarafshon vohasi

KIRISH

Sarmishsoy darasi qadimdan Buxoro vohasidagi eng go‘zal va xushmanzara maskanlardan biri hisoblanadi. Uning suvi toza, havosi musaffo, iqlimi mo‘tadil, shu bois hudud hamma davr odamlarining yashashlari uchun qulay tabiiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan. Qadim zamonlarda dara va uning atroflari boy o‘simpliklar olami va hayvonot dunyosiga ega bo‘lgan.

Qoya tosh suratlarining g‘oyaviy mazmuni mazkur yodgorliklarn o‘rganishning asosiy negizlaridan birini tashkil qilib, tarixchilar, etnograflar, arxeologlar, san’atshunoslar va kishilikning ibtidiliy davri tarixi bilan shug‘ullanayotgan mutaxasislan e’tiborini tortayotgan muhum masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham mashhur sharqshunos olim V.V.Bartold Tyan-Shan tog‘laridagi qoya tosh suratlari haqida to‘xtalganda “Rasmlar ramziy, diniy ma’noga ega bo‘lishi mumkin”- deb yozgan edi. Sarmishsoy darasida olib borilgan tadqiqotlar ham bu yerdagi suratlar va ifoda etilgan manzaralarda qandaydir sehrli ma’noni bildirishini, ular negizida ibtidoiy va qadmiy kishilarning kundalik turmushi, diniy e’tiqodi bilan bog‘liq bo‘lgan tasavvurlar mavjud bo‘lgan degan fikr kelib chiqdi.

Sarmishsoy darasi kungirador qoya toshlar bilan o‘ralgan. Mazkur dara qoyalari o‘zida besh mingdan ortiq qadimiy qoya tosh tasvir – rasmlarini – petgrogoliflarni saqlab keladi. Daradagi qoyatosh tasvirlari O‘zbekiston dagina emas, O‘rta Osiyo va jahondagi eng boy, nodir va ajoyib tasviriy san’at yodgorligi hisoblanadi.

Qoyalarga odam har turli hayvon, ov, mehnat va jangavor qurolalarning tasvir – rasmlari bitilgan. Qoyalardagi xilma – xil rasm, turli mavzudagi manzaralarni ko‘rib kishi hayratga tushib, vujudi hayajonga to‘ladi.

Sarmishsoy bo‘ylab dara so‘qmog‘idan ko‘tarilar ekansiz, nigohingiz ko‘kka qad ko‘targan rasqli qoyalarga tushadi. Siz o‘zingizni allaqanday sirli, afsonaviy maskan bag‘rida his etganday bo‘lasiz. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, qoyalar o‘z bag‘rida bir necha ming yillar muqaddam ajdodlarimiz tomonidan ishlangan qoyatosh tasvirlarini saqlab keladi.

So‘qmoq uzra yuqori tojni odim tashlab borar ekansiz, soyning o‘ng sohilidagi katta bir qoyatosh nigohingizni o‘ziga tortadi.

Qoyatoshning silliq sirti to‘q jigarrang va qoramtilov tovlandi. Uning silliq sathi 23 dan ortiq odam, turli hayvon, o‘q – yoy, nayza va boshqa buyumlarni tasvirlari bilan bezatilgan.

Mazkur qoyatoshning oftob nurida to‘q jigarrang va qoramtilov tovlanuvchi silliq sirtini mayda darzlar qoplagan. Qoya sathini yuqori qismida tuxumsimon bir narsaning tasviri. Undan quyida esa mayda, siyrak nuqtalar orqali ifoda etilgan qandaydir hayvon tasviri. Undan pastroqda esa kamalaksimon tasvir ko‘zga tashlanadi. Mazkur rasm bilan yonma – yon ikki kichik quloqli, to‘mtoq tumshuqli, chirolyi boshlik, qaddi – qomati kelishgan, dumi yuqoriga qayrilgan ikki uzun – uzun oyoqli itning tasviri tushirilgan. It boshini baland ko‘tarib orqa oyog‘ini yerga tirab oldingi oyog‘ini old tomoniga cho‘zgan holda o‘zidan uzoqroqdagi sherga qarab hurayotgan tarzda ifoda etilgan. Itning old tomonida yelkador, orqa tomoni ixchamlashib ketgan, yirik shoxlik, uch oyoqli yovvoyi hayvon. Bu hayvon tashqi ko‘rinishiga ko‘ra ibridoiy turni eslatadi. U oyoqlarini yerga qattiq tirab, ikki shoxlik katta boshini quyi tomon tushirgan holda qarshisida turgan yirtqich hayvondan o‘zini himoya qilayotgan tarzda tasvir etilgan. Ibtidoysi turdan pastda esa yana bir itning tasviri. U uzun tumshuqli, kalta bo‘yinli, ikki quloqli, cho‘ziq tanali, dumi yuqoriga ko‘tarilib, uchi pastga qayrilgan, ikki uzun-uzun oyoqli holda tasvir etilgan. It ikki oyog‘ini yerga tirab, boshini quyi tushirib, gavdasini biroz orqaga tashlagan holda go‘yo qarshisidagi yirtqichga qarab hurmoqda. It qornining quyi tomonida qandaydir noaniq ikki tasvir.

Qoya sathining quyi qismida esa katta bir ibridoiy buqa – turning tasviri. Tur katta boshli, uzun ikki qayrilma shohli, kichik quloqli, kalta yo‘g‘on bo‘yinli, uzun

tanali, baquvvat – baquvvat to‘rt oyoqli, qo‘s sh tuyoqli, dumi uzun pastga osilgan, dumining uchida popugi ham bor. U katta – katta odimlab, hotirjamlik bilan yurib ketayotgan tarzda ifoda etilgan. Tur soya va naqshdor – bezakli uslub bilan ishlangan.



Qoya sathidagi rasmlar majumasiga e’tibor qaratilsa, ularni quyidagi manzaralarga ajratish mumkin. Qoya sathining yuqori qismida Tur bilan sherning o‘zaro to‘qnashuvi, ulardan quyida esa itli ovchining sherga o‘q uzganligini aks ettirgan manzara ifoda etilgan. Qoya sathining o‘rta qismida esa itli ikki ovchining katta bir tog‘ echkisiga kamonda o‘q uzilayotganini ifoda etilgan manzaradir. Quyida esa yuqoridagilarga bog‘liq bo‘lmagan alohida manzaraki, unda katta bir ibtidoiy tur salobat bilan og‘ir – vazmin qadam tashlab yurib ketmoqda.

Tur, ya’ni ibtidoiy buqa juft oyoqliklar turkumining hovushshoxliklar oilasiga kiruvchi yovvoyi hayvon. Turning bir necha kenja turlari bo‘ladi. Ular yerning to‘rtlamchi davrida Yevropa, Osiyo va Afrikada keng tarqalgan edilar. Tur xususan Yevropada uzoq vaqtga qadar saqlangan: eng oxirgi tur 1627 yilda Polshaning Varshava shahri atrofidagi Yaktarov o‘rmonida o‘ldirilgan.

Paleozoologlarning aniqlashicha, turlar O‘rta Osiyoda jez davrining oxirilarigacha ya’ni miloddan avvalgi II ming yillik oxirgacha bo‘lgan davrda yashaganlar. Mazkur davrdan so‘ng ular noma’lum sabablarga ko‘ra O‘rta Osiyodan g‘oyib bo‘lganlar. O‘rta Osiyodagi ilk paleolitdan jez davri oxirigacha bo‘lgan arxeologik yodgorliklarining madaniy qatlamlaridan turlarning suyaklari ko‘plab topilgan. Paleozoolog olimlar joylardan topilgan tur suyaklariga qarab ularning tashqi qiyofasini tiklashga muvaffaq bo‘lganlar.

Paleozoologlarga ko‘ra, tur kattaligi eng katta uy buqasi yoki ho‘kizdek bo‘lib, gavdasi kelishgan, juda baquvvat yovvoyi hayvon bo‘lgan. Yelkasining oldi o‘rkachga o‘xshash bir oz ko‘tarilgan, gavdasi bo‘liq, bo‘yni kalta, yo‘g‘on, boshi katta, oyoqlari

kaltaroq, baquvvat, dumি kaltaroq bo‘lib, uchida osilib turuvchi qil popugi bor, qo‘shtuyoqli. Uning qulqlari kichikroq, katta shohlari oldinga qarab o’sgan, juni uzun, rangi qoramtil va yelkasida xiraroq oq yo‘li ham bo‘lgan. Sigiri bilan buzog‘ining rangi malla. Turlar botqoqli o‘rmonlarda daryoga yaqin joylardagi qamishzorlarda va o‘rmon cho‘llarda yashaganlar. O‘rta, Quyi Zarafshon vohasi, unga tutash Qadimgi Konimex cho‘llari va Qoratog‘ning janubiy yonbag‘ri, shuningdek, Sarmishsoy darasi ham turlarning yashashlari uchun juda qulay bo‘lgan. Zarafshon vohasidagi Zirabuloq, Qo‘tirbuluoq, Kavobi kabi qator yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan tosh qurollar, boshqa hayvonlar kabi turlarning ham suyaklari topilgan. Sarmishsoydagi qoya toshlarda turlar tasvirining bo‘lishi bejiz emas ekan. Chunki samishsoyliklar qadimda bilimli va ulkan tafakkurga ega insonlar hisoblanishgan.

Sarmishsoy qoya tosh suratlari g‘oyat qimmatli tarixiy hujjatlar hisoblanadi. Bu hujjatlar bizga eng qadimgi zamondagi odamning fikrlash jarayonini anglab etishga, mezolit davri ma’naviy madaniyati xususiyatlari bilan tanishishga imkon beradi. Qoyatosh rasmlar bir necha asrlar davomida chizilib, ajdodlarimizning ov bilan bog‘liq urf-odatlari, an’analarini o‘zida aks ettirgan ezgu niyatlar, tabiatga hurmati, vatanga muhabbat his - tuyg‘ulari aks ettirilgan edi.

Vatanimiz tasviriy san’atining ilk durdonasi bo‘lgan Sarmishsoy qoya toshlari suratlari rasmlar, tasvirlar qadim xalqimizning moddiy-ma’naviy madaniyatining bebaho xazinasi va bu tarixiy obida yuksak san’at yodgorligi hisoblanadi. Eng muhimi ushbu tasviriy san’at namunalari ajdodlarimizning ilk yozuvini vujudga kelishiga asos solishiga yo‘l ochib bergan ma’naviy yutuqdir. Sarmishsoy manzilgohida yashovchi ibridoiy odamlar tasviriy san’atni bo‘lajak ovning baroridan kelishiga yordam beradi deb tushunganlar, insonga bo‘ysunmaydigan kuchlarga ta’sir etuvchi vosita deb bilganlar va tasviri tushirilgan hayvon yuragiga nayza sanchib, hayotda ham ovni g‘olibona yakunlash mumkin deb ishonganlar.

Sarmishsoy qoya tosh rasmlarida qadim kishilarining shakli ko‘zga aniq tashlanadi, ular yovvoyi buqa yoniga yashirinib borib unga nayza otadilar.

Odamlar va hayvonlarning ana shu rasmlarida badiiy tasvir inson mehnati bilan, uning yashash uchun kurashi bilan bog‘langan. Bu san’at ibridoiy odam ongida vujudga kelgan qiyofalarni o‘zining ibridoiy tasviriga, qonunlariga ega bo‘lgan asarga aylantirish mahoratiga asoslangan.

Sarmishsoy manzarasida «raqsga tushayotgan odamlarning, kamondan o‘q otayotgan merganning, otda chopib ketayotgan chavandozning, bir-biri bilan urushayotgan hayvonlarnnng, olis yo‘lga otlangan tuya karvonlarining, uzun shoxlari tarvaqaylab ketgan ibridoiy buqa va bug‘ularning osoyishta turgan, shuningdek, yelib

borayotgan tog‘ takasi, ohu, to‘ngiz, it, bo‘ri, qoplon va boshqa hayvonlarning tasviri bor». Sarmishsoy qoya tosh suratlarining mazmuni, mavzusi va ulardan olingan arxeologik, etnografik dalillarga tayanib shuni aytish mumkinki, mazkur daradagi tasvirlar negizida ibtidoiy kishilar, qadimgi qabilalarning kundalik turmushi bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi hayotiy voqealar, ularning g‘oyaviy tushunchalari bilan aloqador bo‘lgan diniy e’tiqodlari yotadi desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Chunki, qoya toshlarga ishlangan suratlar ham irim-sirimlar, sehr-jodularning bir ko‘rinishi bo‘lgan.

Bu maqolada xulosa o’rnida shuni takidlashimiz mumkinki, Muayyan davrda yashagan kishilar guruhi va qabilalar uchun muqaddas dargoh hisoblangan daralarga, qoya toshlarga, g‘orlarga va kamarlarning devorlariga ishlangan odamlar, hayvonlar, qurol-yarog‘ va boshqa narsalarning tasviri tushurilgan suratlar tasodifiy holat emas. Sarmishsoy suratlarining g‘oyaviy mazmuni haqida bayon etilgan fikr-mulohazalar qanchalar ravon bo‘lsada, bu borada qoya tosh suratlari yangi tadqiqotlarga muhtoj hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Асқаров А. Бухоронинг ибтидоий давр тарихидан лавҳалар. Т. «Фан». 1973.
2. Агзамходжаев Т. Наскальные изображения в Бостагдиксокм районе Ташкентской области. Общественные работы АН Уз ССР. 1960. С.
3. Алпысбаев Х. Новые наскальные изображения Бостандыкского района. ТИИАЭ АН Каз. Т. 1. 1956.
4. Аубекеров Б.Ж. Геолого-геоморфологические исследования в долине реки Сармишсая // Достижения и перспективы изучения, сохранения и управления природного и культурного наследия «Сармишсая». Материалы региональной конференции. Ташкент, 2009.
5. Бартольд В.В. Отчет о поездке в Среднюю Азию с научной целью 1893-1894 гг. Императорской Академии наук. Т.1. Вып.4.-СПб.,1897
6. Вебер В.Н. Геологическая карта Средней Азии. М. 1914.
7. Воронец М.Э. Наскальные изображения Южной Киргизии // Тр.Кирг.ЯГПИ. Вып. 2. Фрунзе. 1950.
8. Джуракулов М., Холматов Н. СамДУ археологик тадқиқотлари саҳифасидан (1995-2000) // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар-2000 йил. Самарқанд. 2001.